



## O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR (14 TA) RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISH MASALALARI

---

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistri*

*Sadullayeva Mexrinoz Djamshedovna*

*e-mail: [mexrinozs@icloud.com](mailto:mexrinozs@icloud.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida hududlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma rivojlanishidagi tafovutlarning sabablari, ularni kamaytirish usullari hamda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, hududlar kesimida iqtisodiy salohiyat va investitsiya jozibadorligi ko'rsatkichlari tahlil etilib, hududiy tenglikni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, salohiyat, infratuzilma, investitsiya, diversifikatsiya, markazlashtirish, siyosat.

## СНИЖЕНИЕ РАЗРЫВОВ В РАЗВИТИИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация:** В данной статье анализируются причины различий в уровне экономического, социального и инфраструктурного развития регионов Республики Узбекистан, пути их сокращения, а также приоритетные направления государственной политики. Кроме того, рассматриваются показатели экономического потенциала и инвестиционной привлекательности по регионам, разрабатываются предложения по обеспечению регионального равенства.

**Ключевые слова:** экономика, потенциал, инфраструктура, инвестиции, диверсификация, централизация, политика.



## ISSUES OF REDUCING DEVELOPMENT DISPARITIES BETWEEN REGIONS IN UZBEKISTAN

**Abstract:** This article analyzes the causes of economic, social, and infrastructure development disparities among the regions of the Republic of Uzbekistan, as well as ways to reduce them and the priority directions of state policy. In addition, the article examines indicators of economic potential and investment attractiveness across the regions and develops proposals aimed at ensuring regional equality.

**Key words:** economy, potential, infrastructure, investment, diversification, centralization, politics.

### Kirish

Yurtimiz mustaqillika erishganidan keyin mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi va infratuzilmasi bir tekisda shakllanmadi. Aholining yashash tarzi, bandlik va ishlash salohiyati, shuningdek ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlangan darajasi Respublika viloyatlar kesimida sezilarli farq qiladi. Shu sababli, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bu – hududlar rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish usullarini ishlab chiqish hamda dunyoda qo'llanilayotgan zamonaviy konsepsiyalar, jumladan, barqaror rivojlanish, klasterlash, innovatsion infratuzilma yaratish hamda hududlararo integratsiyani kuchaytirish.

### Asosiy qism

Bugungi kunda ko'pgina rivojlangan va endi rivojlanayotgan davlatlarda hududiy rivojlanishdagi tafovutlar dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasini ham ushbu muammo cheklab o'tgani yo'q.



Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi 14 hududiy va ma'muriy birliklarga – mintaqalarga bo'lingan. Bu hududlarning tabiiy resurslari, geografik joylashuvi, sanoat salohiyati va aholi zichligi bir xil emas. Shu sababli har bir ma'muriy hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi va imkoniyatlari turlicha shakllangan.

Dastlab, hududlar rivojlanishidagi tafovutlarga sabab bo'lib kelayotgan omillarni sanab o'tadigan bo'lsak:

**Birinchidan**, O'zbekistondagi barcha ma'muriy hududlar o'zining tabiiy, iqtisodiy va demografik jihatdan turlicha sharoitlariga ega. Markaziy viloyatlar ya'ni Toshkent, Samarqand va Frag'onada sanoat, xizmat ko'rsatish va ayniqsa transport infratuzilmasi yaxshi rivojlangan. Janubiy va g'arbiy hududlar hisoblangan Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlari esa tabiiy resurslarga boy bo'lsada, ijtimoiy infratuzilma va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha boshqa hududlarga nisbatan orqada turadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Jizzax, Sirdaryo viloyatlariga keladigan bo'lsak, ushbu hududlarda jamiyatda iqtisodiy ko'rsatkichlari va faolligi jihatdan pastroq hisoblanadi, shuningdek ishlab chiqarish quvvatlari ham biroz cheklangan hududlar sirasiga kiradi.

**Ikkinchidan**, Hududlar bo'yicha investitsiyaning notekis taqsimlanishi ham rivojlanishdagi tafovutlarning kelib chiqishida asosiy sabab bo'lib kelmoqda. Milliy statiska qo'mitasining so'ngi keltirib o'tgan ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar – sentabr oylarida asosiy kapitalga **443,6 trillion** so'mlik<sup>1</sup> investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, hududlar kesimida bularning eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida qayd etilgan.

**Uchinchidan**, Ishlab chiqarish infratuzilmalarining markazlashuvi, ya'ni turli xil fabrika va zavod, transport va logistika tamoqlari, elektr energiya, suv ta'minoti, kommunikatsiya tizimlarining faqat poytaxt yoki yirik shaharlar atrofida to'planishi ham iqtisodiy rivojlanishdagi notekisliklarga sabab bo'luvchi muhim omildir..

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mamlakatda investitsiyalar o'zlashtirish ko'rsatkichi( <http://stat.uz>)



Aynan ushbu omil boshqa hududlarda ish o‘rinlarining tanqisligi, hududiy tafovutlarning oshishiga ham sabab bo‘lib kelmoqda.

**To‘rtinchidan**, Kadrlar salohiyati va innovatsion faoliyatning pastligi, ya’ni yurtimizning ayrim chekka hududlarida texnik va IT mutaxassisliklari yetarli emas. Shuning uchun yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish murakkablashadi. Turli sanoat korxona va fabrikalarida ham xodimlar zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalan olishmaydi, natijada ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Malakali kadrlarning yetishmasligi yangi innovatsiyalarni yaratishni sekinlashuviga olib keladi.

Endi, Yurtimizda amalga oshirilayotgan hududlar tafovutlarini kamaytirishga qaratilgan davlat siyosatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, so‘ngi o‘n yillikda O‘zbekiston ushbu tafovutni oldini olish maqsadida konkret kompleks siyosat amalga oshirmoqda. Siyosat quyidagi strategiya, dasturlar va tizimlarni o‘z ichiga oladi:

1. “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi o‘z ichiga Barqaror iqtisodiy rivojlanish, Kadrlar salohiyatini oshirish, Infratuzilmani rivojlantirish hamda Ijtimoiy va ekologik barqarorlik kabi 4 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha o‘z samarasini berib kelmoqda. Bundan tashqari, Investitsiyalarni teng taqsimlash, malakali kadrlarni tayyorlash, innovatsiyalar va texnologiyalarni hududlarga yetkazish kabi choralarni amalga oshirmoqda.

2. Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari (2022-2026) ham samarali loyiha bo‘lib, bu viloyatlardagi har bir “o‘sish nuqtalari” aniqlab, minglab yangi ish o‘rinlarini rejalashtirgan.

3. Hozirgi kunda eng dolzarb tamoyillardan biri bo‘lib kelayotgan dastur-“Yashil iqtisodiyot” tamoyili ham energetika va transport tamoqlarini, sanoat va qihloq xo‘jaliklarini shuningdek, shaharsozlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ta‘mayil hududlar bo‘yicha yashil iqtisodiy loyihalar imkoniyatini berib kelmoqda. Quyidagi jadvalda hududlarning rivojlanishning yashil iqtisodiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan:



| Hudud                                | Yo‘nalishi                                                           |
|--------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|
| <i>Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo</i>   | Quyosh va shamol energiyasi loyihalari                               |
| <i>Farg‘ona vodiysi</i>              | Ekologik toza qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash klasterlari           |
| <i>Surxondaryo, Jizzax</i>           | Tomchilatib sug‘orish, suc resurslarini tejash texnologiyalari       |
| <i>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</i> | ekoturizm                                                            |
| <i>Toshkent shahri va viloyati</i>   | Energiya tejamkor infratuzilma va chiqindilarni qayta ishlash tizimi |

4. “Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra: sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish; infratuzilmani rivojlantirish, “yashil” tamoyil va yondashuvlarni hamda raqamlashtirishni joriy qilish; xizmatlar sohasini rivojlantirish, jumladan, kreativ industriyalar, turizm va yo‘lbo‘yi infratuzilmasi imkoniyatlarini ishga solish; tuman (shahar)lar markazlarida aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratish; kasbga o‘qitish, zamonaviy yoshlar mikrohududini tashkil qilish kabi tadbirlarni amalga oshirish loyihalari belgilab qo‘yilgan<sup>2</sup>.

Endi muammoning bartaraf etilishiga qaratilgan taklif va yangiliklar qismiga o‘tadigan bo‘lsak, Quyida ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan eng samarali takliflar taqdim etilmoqda:

<sup>2</sup> “Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori;



1. “Hududiy rivojlanish agentligi” ni tashkil etish. Bu orqali biz amalga oshirishimiz mumkin bo‘lgan barcha xatti-harakatlarni nazorat qiluvchi tashkilotni yo‘lga qo‘yishimiz mumkin.
2. Hududiy investitsiyalarni muvozanatlashtirish siyosatini kuchaytirish maqsadida “Hududiy investitsiya kvotasi” tizimini joriy etish — hududlar kesimida kamida ma’lum foiz investitsiya ajratilishini qonun bilan belgilash lozim. Chunki investitsiya iqtisodiy rivojlanishning eng samarali usuli hisoblanadi.
3. Chekka hududlarda sanoat zonalarini yaratish. Bu taklif orqali ham yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda sanoat ishlab chiqarish foizi ortadi.
4. Past daromadli viloyatlarda soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish.
5. Inson kapitali va mahalliy boshqaruvni rivojlantirish. Ma’lumki, hududiy tafovutlar sababi faqat iqtisodiy emas — ta’lim, sog‘liqni saqlash, boshqaruv salohiyatidagi farqlar ham muhim rol o‘ynaydi. Har bir viloyatda hududiy universitetlar va kasb-hunar markazlarini yangi texnologiyalarga moslab modernizatsiya qilish.
6. Mahalliy hokimliklarga avtonomiya va mas’uliyatni oshirish ya’ni byudjet mablag‘laridan mustaqil foydalanish vakolatlarini kengaytirish.

### **Xulosa**

O‘zbekiston Respublikasida hududlar rivojlanishidagi tafovutni kamaytirish mamlakat barqaror taraqqiyoti va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Buning uchun huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash, davlat va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi vakolatlarni aniq taqsimlash, hamda institutsional tizimni zamonaviylashtirish zarur. Huquqiy asoslarning izchil takomillashuvi, davlat boshqaruvida samaradorlik va shaffoflikning oshishi, mahalliy byudjetlarning mustaqilligi va yashil iqtisodiyotga o‘tish siyosati hududlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishning asosiy kafolatidir.



### Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2023-yil 11-sentabr, "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-132-son qarori, 2025-yil 1-aprel, "Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"
3. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi. Toshkent: 2025 – [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
4. Babajanov A.R., Muqumov A.M., Sharipov S.R. Hududlarni rivojlantirish (o'quv qo'llanma). T., TIQXMMI. 393 b.